BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISLOMOVA SHAXNOZA ISKANDAR QIZI

TIBBIY SHE’RIYATNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: [811.512.133`37:61]

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Islomova Shaxnoza Iskandar qizi
Tibbiy she’riyat lisoniy xususiyatlari 5

Исломова Шахноза Искандар кизи
Лингвистические особенности медицинской поэзии.....23

Islomova Shakhnoza Iskandar kizi
Linguistic Features of Medical Poetry.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....52

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISLOMOVA SHAXNOZA ISKANDAR QIZI

TIBBIY SHE’RIYATNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3269 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abuzalova Mehriniso Kadirovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Maxmaraimova Shohista Tuxtashovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Abdiyev Murodqosim Bolbekovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 7-sentabr soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221 29 14; faks: +99865 221 27 07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (996-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221 29 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17-avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil 17-avgustdagi 30-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida tibbiyot va tilshunoslik integratsiyasi natijasida tibbiy terminologiyani standartlashtirish, tibbiy diskurs sifatini oshirish, tibbiy axborotni aniq va tushunarli yetkazish hamda nazmiy tabobat tilining kommunikativ imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari keng rivojlanmoqda. Shu bilan birga, tibbiy mazmundagi badiiy matnlarda qo‘llangan tibbiy birliklarni yagona tizimga keltirish, ularning milliy til manzarasidagi o‘rnini belgilash, lug‘at boyligini to‘ldirish, tibbiy kommunikatsiya va ta’lim jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur yo‘nalish tibbiy birliklarning izchil tavsifini yaratish, nazmiy tabobat tilining ifoda salohiyatidan samarali foydalanish hamda ularni ta’lim, tarjima, leksikografiya va raqamli til texnologiyalarida amaliy qo‘llash uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida tibbiy birliklarning professional terminlar sifatida leksikologik sathdagi tadqiqiga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon tilshunoslikning tadqiqot yo‘nalishlariga sezilarli ta’sir o‘tkazib, tibbiyotga oid birliklarning leksik hamda lug‘aviy-grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qilish imkonini bermoqda. Xususan, nazmiy usulda bayon etilgan tabobat durdonalari til xususiyatlarini tadqiq qilish, *salomatlik, kasallik, shifo, o‘lim* semalarini ifodalagan tibbiy birliklarning leksik-semantik, grammatik, milliy-mental jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqona davo usullari bayoni keltirilgan nazmiy tabobat tili va undagi til birliklarining leksik-semantik, grammatik va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish tibbiyot lingvistikasida dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda o‘zbek tili, shuningdek, tilshunoslik fani istiqlol tufayli mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borib, ilmiy dunyoqarashning yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda. Chunonchi, mamlakatimizning istiqbolli rejalarida til takomiliga xizmat qiluvchi “Mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilanganki, bu keyingi yillarda tilshunoslik va tibbiyot, tabobat va musiqa, tilshunoslik va jamiyatshunoslik, tilshunoslik va iqtisod, tilshunoslik va psixologiya kabi turli fanlarning hamkorlik jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tibbiy lingvistikada tibbiy she’riyatning lisoniy xususiyatlarini yangi metodologik tamoyillar va zamonaviy mezonlar asosida o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5058351

““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tibbiy birliklar dunyo tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham professional termin, shuningdek, xalqona atama sifatida leksikografik sath markazida turadi. Tibbiy terminlarning leksik-semantik, grammatik, evfemik, metaforik xususiyatlari, shuningdek, kognitiv, lingvomadaniy, psixolingvistik va shu kabi yo‘sinlardagi talqini, ularning ifoda semasidagi dolzarb muammolar, shuningdek, uning *tiriklik* va *o‘lim* lisoniy manzarasini idrok etishdagi o‘rni masalalari hamda tibbiy she’riyatning terapevtik xususiyatlari jahon tilshunosligida qator olimlar, xususan, Z.R.Polyutina, A.A.Leontev, K.F.Sedov, G.A.Abramova, I.A.Menshanina, O.P.Dovger, V.V.Jura, M.I.Barsukova, J.Frank, Y.F.Shuls, S.Spaniol, C.A.Malchido, D.Edvards, C.Debbie, S.M.Erinch, B. Aydın[2] kabilar tomonidan tadqiq qilingan va mavzuga oid nazariyalar, lug‘atlar, monografiyalar yaratilgan.

Keyingi yillarda antroposentrik asoslarda o‘zbek tibbiy lingvistikasi ham ma’lum darajada tadqiq qilindi, jumladan, o‘zbek tibbiy evfemizmlari, tibbiy frazeologizmlar, tibbiy birliklarning metaforik, perifrazik xususiyatlari, tibbiy

[2] Палютина. З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития. – Башкортостана: Медицинский вестник, 2013. – 232 с.; Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1997. – 287 с.; Седов К.Ф. Нейропсихолингвистика. – Москва: Лабиринт, 2007. – 274 с.; Меньшенина И.А. Лингвистические особенности научной медицинской статьи на английском языке. – Москва: Витебск, 2022. – 172 с.; Довгер О.П. Лингвопрагматический анализ терминологического корпуса медицинского дискурса через призму переводческой практики (на примере английского языка) // Russian Linguistic Bulletin. – России: Курск, 2023. – № 11 (47). – С. 1-5.; Жура В.В. Дискурсивная компетенция врача в устном медицинском общении. Дисс… канд. филол. наук. – Волгоград, 2008. – 407 с.; Барсукова М.И. Медицинский дискурс: стратегии и тактики речевого поведения врача. Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Саратов, 2007. – 21 с.; Frank J. The role of poetry and prose in medical education: the pen as mighty as the scalpel? Perspect Med Education. – Netherland, 2012. – P. 44-51.; Сатретдинова А.Х. Медицина в поэзии. Антология. – Астрахань: Изд-во ГОУ ВПО АГМА, 2011. – 111 с.; Шульц Ю.Ф. Медицина в поэзии греков и римлян. – Москва: Медицина, 1987. – 128 с.; Седов К.Ф. Нейропсихолингвистика. – Москва: Лабиринт, 2007. – 274 с.; Соломонова АА. Медицинская тема в литературе конца XIX - начала XXI вв. –Лобачевского: Филология. Искусствознание Вестник, 2014. – С. 309-313.; Spaniol S. Art and mental illness: where is the link? – USA: The Arts in Psychotherapy, 2001. – P. 221-231.; Malchiodi C.A. What is art therapy? – London: National Institute of Mental Health, 2011. – P. 1-11.; Edwards D. Art Therapy. – London: Sage Publications, 2004. – P. 31-41.; Erinç S.M. Sanat Psikolojisine Giriş. – Ankara:Ütopya Yayınevi, 2004. – S.29; Aydın B. Tıbbi Sanat Terapisi. – İstanbul: Basımevi, 2012. – S.69-83.

reklama tili kabi qator muhim masalalar o‘z yechimini topdi. Bu kabi tibbiy lingvistik tadqiqotlar o‘zbek tilshunoslari M.K.Abuzalova, N.I.G‘aybullayeva, D.R.Sobirova, F.I.Abdulxairova, M.G‘.Navro‘zova**,** G.A.Roziqova[3] kabilar tomonidan tadqiq qilingan. Ammo o‘zbek tilshunosligida nazmiy tabobatning til xususiyatlari, xalqona tabobatda qo‘llangan tibbiy birliklarning lisoniy jihatlari maxsus tadqiq etilmaganligi muammoning o‘rganilishiga turtki bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2022-2026 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tib ilmiga oid she’riy asarlarning lisoniy tahlilini amalga oshirish, tibbiy she’riyatdagi til birliklarining badiiy ifodasini lingvopoetik, lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

antroposentrik tilshunoslik doirasida tibbiyot va boshqa fanlar integratsiyasi jarayonini, xususan, tibbiyot va she’riyat o‘rtasidagi mushtaraklikni tahlil etish;

tibbiy she’riyatning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tilshunoslik doirasida o‘rganilishini aniqlash;

tibbiy she’riyat leksikasini tadqiq etib, tibbiyotga oid terminologiya, metaforik vositalar hamda inson salomatligiga daxldor til birliklarining badiiy ifodasini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish;

tibbiy she’riyatning lug‘aviy-grammatik xususiyatlarini aniqlash, tibbiyotga oid termin va atamalarning badiiy nutqda qo‘llanishi, ularning morfologik va sintaktik o‘ziga xosliklarini, shuningdek, tibbiy birliklarning poetik ifoda vositalari orqali til tizimida aks etishini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nazmiy tabobatda qo‘llangan tibbiy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini nazmiy tabobatda qo‘llangan tibbiy birliklarning leksik-semantik, grammatik va milliy-mental xususiyatlari hamda tibbiy she’riy matnlardagi tibbiy metaforalar, tibbiy frazeologik va paremiologik birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kuzatish, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvokulturologik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiyotning she’r terapiya, musiqa terapiya, tibbiy lingvistika, fitoterapiya va tibbiy informatika kabi fanlararo yo‘nalishlar bilan integratsiyalashuvi natijasida o‘zbek tilida yagona tibbiy axborot maydonining shakllanish qonuniyatlari yoritilib,

[3] Abuzalova M.K. Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida / “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2021. – B.17-22.; G‘aybullayeva N.I. O‘zbek tili tibbiy evfemizmlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Buxoro: Durdona, 2021. –71 b.; Sobirova D.R. Samarali tibbiy reklama matnlarini yaratishning muhim omillari. – Buxoro: Durdona, 2024. – 116 b.; Abdulxairova F. O‘zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) ...diss. – Toshkent, 2021. – B.23; Navro‘zova M.G‘. O‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari. Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) ...diss. – Buxoro, 2023. – 142 b; Roziqova G. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida qo‘llangan tibbiyotga doir so‘z va atamalarning leksik-semantik tahlili // Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – № 9, 2020. – B.187-191.

mazkur integratsion jarayonning tibbiy bilimlarni tizimli tashkil etish, terminologik birliklarni me’yorlashtirish va boyitish, tibbiy axborot almashinuvini optimallashtirish, kasbiy muloqot sifatini yuksaltirish hamda zamonaviy tibbiy kommunikatsiyaning samaradorligini ta’minlashdagi hal qiluvchi o‘rni asoslangan;

tabobat bayoni berilgan nazmiy tibbiyot ildizlari qadimiyligi, ilk turkiy manbalar – “Avesto”, “Devonu lug‘ati-t-turk”ga borib taqalishi, tabib bo‘lmasa-da, asarlarida tabobat ilmi bayoni nazmiy usulda keltirilgan qator mumtoz shoirlarimiz asarlari lisoniy tahlilga tortilib, undagi tibbiy birliklarning lingvistik tasnifi keltirilgan;

nazmiy tibbiyotda qo‘llaniladigan tibbiy metaforik, tibbiy frazeologik va tibbiy perifrazik birliklarning lisoniy-semantik hamda funksional xususiyatlari nazariy ochiqlangan, mazkur tibbiy birliklarning tibbiy terminlarga nisbatan noprofessional diskursda yuqori kommunikativ salohiyatga egaligi, tibbiy axborotni ommaga aniq, ravshan, tushunarli va ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiluvchi samarali lisoniy vosita vazifasini bajarishi dalillangan;

tibbiy aforizmlar orqali ifodalangan nazmiy tibbiyot tilida tabobatga oid bilimlar bilan bir qatorda xalqning milliy-madaniy tafakkuri, tarixiy xotirasi, e’tiqodiy qarashlari, ma’naviy qadriyatlari va milliy-mental xususiyatlari verbalizatsiya qilinishi, mazkur jarayonda xalq folklori hamda an’anaviy tibbiyot o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikning til birliklarida aks etishi lingvokulturologik nuqtayi nazardan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazmiy tibbiyotda qo‘llangan tibbiy axborot tashuvchi til birliklari til sathida muhim o‘rin tutganligi, ularning grammatik tamoyillari, mavzuviy va tarkibiy-semantik belgilari kompleks holda aniqlangan;

tibbiy birliklarning lisoniy xususiyatlarini yoritish bilan bog‘liq nazariy xulosalar soha lingvistikasi shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ahamiyatli bo‘lgan ilmiy yondashuvlarning yuzaga kelishiga xizmat qilishi izohlangan hamda tibbiyot sohasi bo‘yicha yig‘ilgan nazmiy tibbiyot til birliklari kasb egalari nutqini boyitishda xizmat qilishi kontekstlar tahlili orqali aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi birlamchi ilmiy-uslubiy manbalarga, xususan, respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning kuzatish, tavsiflash, tasniflash, umumlashtirish, qiyoslash, kognitiv hamda uslubiy-kontekstual tahlil usullari orqali dalillanganligi, tadqiqotning materiali sifatida ensiklopediyalar, mumtoz badiiy adabiyot durdonalari, tib ilmiga oid nodir kitoblar, soha jurnallari, badiiy va davriy nashr materiallari asosida tibbiy birliklardan foydalanilganligi, tahlil hamda talqin qilinganligi, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazmiy tibbiyotda qo‘llangan tibbiy birliklarni tavsiflash va metodologiyasini ishlab chiqishda nazariy material bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘plangan materiallar va xulosalarning “Kommunikativ tilshunoslik”, “Psixolingvistika”, “Matn lingvistikasi” hamda tibbiyotga ixtisoslashgan talabalarga “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi”, “Nutq madaniyati” kabi fanlarni o‘qitishda qo‘llanilishi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va soha xodimlariga qo‘llanma sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy she’riyatning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

nazmiy tibbiyotda qo‘llaniladigan tibbiy metaforik, tibbiy frazeologik va tibbiy perifrazik birliklarning lisoniy-semantik hamda funksional xususiyatlarining nazariy ochiqlanishi, mazkur tibbiy birliklarning tibbiy terminlarga nisbatan noprofessional diskursda yuqori kommunikativ salohiyatga egaligi, tibbiy axborotni ommaga aniq, ravshan, tushunarli va ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiluvchi samarali lisoniy vosita vazifasini bajarishi natijasida olingan xulosalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan AL-662204396-raqamli “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 21-oktyabrdagi 6510-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha Buxoro adabiy muhiti allomalaridan biri – Ibn Sino ijodiga doir yangi ma’lumotlar bilan boyigan;

tibbiy aforizmlar orqali ifodalangan nazmiy tibbiyot tilida tabobatga oid bilimlar bilan bir qatorda xalqning milliy-madaniy tafakkuri, tarixiy xotirasi, e’tiqodiy qarashlari, ma’naviy qadriyatlari va milliy-mental xususiyatlari verbalizatsiya qilinishi, mazkur jarayonda xalq folklori hamda an’anaviy tibbiyot o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikning til birliklarida aks etishi lingvokulturologik nuqtayi nazardan ilmiy asoslanganligi haqidagi fikrlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2024-2025-yillarda bajarilgan ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 5-noyabrdagi 1933-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha milliy til jozibasi, xarakterini ko‘rsatib turuvchi tibbiy metaforik, tibbiy frazeologik, tibbiy perifrazik birliklar bilan boyitilib, platformaning mukammallashishiga xizmat qilgan;

tabobat bayoni berilgan nazmiy tibbiyot ildizlari qadimiyligi, ilk turkiy manbalar – “Avesto”, “Devonu lug‘ati-t-turk”ga borib taqalishi, tabib bo‘lmasa-da, asarlarida tabobat ilmi bayoni nazmiy usulda keltirilgan qator mumtoz shoirlarimiz asarlari lisoniy tahlilga tortilib, undagi tibbiy birliklarning lingvistik tasnifi asosidagi xulosalardan 2024-2025-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” viloyati teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” teleko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 24-noyabrdagi 01-09-260-son

ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar mazmunan boyigan hamda ma’lumotlarning aniqligi va izchilligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, ularning 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Shuningdek, dissertatsiyadan ilmiy tadqiqiot mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi 7 ta rasm va 6 ta jadval o‘rin olgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 133 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida ishning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, dissertatsiya natijalarning e’lon qilingani, ishning tuzilishi va hajmi kabilar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tibbiy she’riyatning shakllanishi va taraqqiyoti**” deb nomlangan. Bobning *“Tibbiyot va fanlararo integratsiya”* nomli birinchi bo‘limida tibbiyot fanining tadqiq doirasi inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatadigan barcha ijtimoiy, tabiiy va mehnat omillarini o‘z ichiga olishi tufayli u ijtimoiy, aniq hamda gumanitar fanlar bilan keng ko‘lamli va uzviy integratsiyaga kirishishi asoslab berilgan. Dastlab tibbiyotning tilshunoslik bilan integratsiyasiga urg‘u berilib, bu ikki fan tutashgan nuqtada rivoj topgan tibbiy lingvistika doirasida jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Jahon tilshunosligida fanlar integratsiyasida dastlab tibbiyot va tilshunoslik ta’siri o‘rganildi. Rus tilshunosligida A.Leontev[4], K.Sedov[5]. Z.Palyutina[6] kabi qator olimlar bu borada o‘z izlanishlarini amalga oshirdilar. Inson nutq jarayonlarini tadqiq etuvchi psixolingvistika bilan bir qatorda, patopsixolingvistika va psixiatrik tilshunoslik kabi yo‘nalishlar inson nutqi bilan bog‘liq jarayonlarning yuzaga kelishidagi og‘ishlarni o‘rganadi. Zamonaviy tilshunoslik bag‘rida qator ilmiy yo‘nalishlar – biolingvistika, ekolingvistika, fiziolingvistika va antropologik tilshunoslik kabilar aynan tibbiyot ta’sirida shakllandi, deyish mumkin. Ushbu ilmiy yo‘nalishlar doirasida yangi fanlar, masalan, *artikulyatsiya va perseptiv fonetika* paydo bo‘ldi[7]. Inson tili, nutqi uning qanchalik sog‘lomligini ko‘rsatuvchi belgi

[4]Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1997. – 287 с.
[5]Седов К.Ф. Нейропсихолингвистика. – Москва: Лабиринт, 2007. – 274 с.
[6] Палютина. З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития // Медицинский вестник. – Башкортостана, 2013. – С. 232.
[7] Ахманова О.С. Лингвистический энциклопедический словарь / 2-е изд., стер. – Москва: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – С.71.

ekanligiga asoslanib, G‘arbda normal jismoniy rivojlanishdan chetga chiqish natijasida nutqda namoyon bo‘ladigan shaxs tilidagi nuqsonlarni o‘rganish uchun *klinik tilshunoslik* tashkil etildi[8]. Tibbiyot va tilshunoslikning integratsiyaga kirishuvi ko‘plab kasalliklarga oson davo usullarini topishga imkon yaratdi. Ibn Sino aytganidek: “Biz uchtamiz: men, sen va kasallik. Agarda men bilan sen birlashsak, albatta, kasallikni yengamiz, agarda sen kasallik yoniga tushadigan bo‘lsang, unda men ojizman”[9]. Bu axborotli yondashuvdir. Axborotni to‘g‘ri yetkazib berish va uni qabul qilish juda muhimdir. Bu esa shifokor va bemor diskursida tibbiyot va tilshunoslik kesishgan nuqta – *tibbiyot lingvistikasi* bag‘rida shakllangan bo‘ladi. Ibn Sino tabib, nafaqat, muolajakor, davokor bo‘lmog‘i, balki mohir notiq, kuchli pedagog bo‘lishi kerakligini ham ta’kidlaydi. Qadim davrlardan buyon tibbiyot inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi musiqa fani bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ushbu integratsiya natijasida *musiqa terapiya* yo‘nalishi shakllangan va uning psixik kasalliklarni davolashdagi samaradorligi ilmiy asoslangan.

Bobning ikkinchi bo‘limi *“Tibbiy she’riyatning shakllanish tarixi va rivoji”* deya nomlanib, insoniyat svilizatsiyasi bilan tengdosh tabobat tarixidagi ilk nazmiy tibbiy manbalar xususida so‘z yuritilgan. Inson tamadduni beshigi sanalgan qadimgi Sharqda dastlabki tabobat bilimlari, tabiblik ilmi, davolash usullari, tibbiy asarlar shakllanganligi, ilk tabobat ibodatxona tabobati bilan birga tanilganligi haqidagi ma’lumotlar keltirilib, tabiblikning mustaqil kasb, tabobatga esa mustaqil fan sifatida qaralishi O‘rta Osiyo xalqlarining muqaddas manbasi — “Avesto”da alohida ta’kidlanganligi ko‘rsatilgan. “Avesto”ning Vandidot deb nomlangan sakkizinchi bo‘limi maxsus tabobat ilmiga bag‘ishlangan[10]. Tabobatga oid manbalarning dastlabki namunalari qadim tarixga ega ekanligi islom dinining muqaddas kitobi – Qur’oni Karim va payg‘ambar (Muhammad s.a.v.) hadislaridan o‘rin olgan tibbiy ma’lumotlar bilan asoslangan. Tabobat tarixiga nazar solsak, qadimda arab va fors ijodkorlari ijodida “tabobat” nomli maxsus janr mavjud bo‘lganligi, unda shoir va yozuvchilar tabobatga oid bilimlarini yoritib, tib ilmiga oid bahs va munozaralar yuritilganligi qayd etilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, islomdan avval yaratilgan tabobatga oid fors tilidagi birorta asar haqida yaxlit ma’lumot yetib kelmagan. Tabobat ilmiga oid ilk fors tilidagi nazmiy asar sifatida hakim Ahmad Maysariyning IX asrda yaratilgan “Donishnoma”si e’tirof etiladi. 980-yilda kitobot qilingan ushbu kitobda tabobatning nazariy va amaliy masalalari bayoni keltirilgan[11].

Jahon adabiyotida *tibbiy she’riyat* yoki *tibbiy lirika* deb nom olgan yo‘nalishlar shakllangan bo‘lib, Qadimda Yunon va Rim shifokorlarining tibbiyot masalalariga bag‘ishlangan maxsus asarlarida she’riy shaklda yaratilgan tibbiy tazkiralar mavjudligi bayoni berilgan. Antik davrlar adabiyotida XI asrga oid fransuz shoiri M.Renskovoning “Lapidarium” she’riy kitobida 60ta mineralning xossalari she’riy shaklda bayon etilgan[12]. Shuningdek, tibbiy she’riyatning rivojlanishi she’riyatning

[8] Палютина. З. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития // Медицинский вестник. – Башкортостана, 2013. – С. 232.
[9] Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси. – И жилд. – 1993. – Б. 1035.
[10] Махкам А. Авесто. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 106.
[11] Ҳасаний М. Ўтмишда табобат асарлари қайси усулда ёзилган? // Ҳуррият газетаси, 2009. – Б. 7.
[12] Шульц Ю.Ф. Медицина в поэзии греков и римлян. – Москва: Медицина, 1987. – С.128.

terapevtik funksiyasi bilan uyg‘un holda kechgan. Jumladan, Turkiyada she’riy tibbiy asarga potensiali yuqori bo‘lgan tibbiy-psixologik qo‘llanma sifatida qaralib, uning hissiy kamolot vositasi ekanligi[13] aniqlangan. She’r terapiyasi ayrim adabiyotlarda *san’at terapiyasi* deb ham atalib, u badiiy materiallardan foydalaniladigan ekspressionistik terapiya shaklida[14] berilgan. Ingliz tabobatida she’riyat eng qadimiy dori sifatida baholanib, she’r uzoq vaqtdan beri shifoning bir qismi bo‘lib kelganligi e’tirof etilgan. Ingliz ilm maydonida J.Keats, O.Xolms, U.Uilyams kabilar *tibbiy she’riyat* namoyandalari bo‘lgan[15]. Rus adabiyotida (V.Sorokina, Y.Mamleyeva[16]) ham tibbiy asarlar nasriy va nazmiy shakllarda yozilib, nasriy tibbiy asarlarda bemor va shifokor munosabatlari asosiy o‘rin egallasa, she’riy tibbiyotda bemor va shifokorlarning ruhiy holatlari bayoni talqin etilgan[17]. Sharq tibbiy she’riyati juda qadimiy an’analarga ega bo‘lib, ushbu ilmiy merosni umumlashtirib, uni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘targan buyuk alloma – Ibn Sino hisoblanadi. U tibbiy bilimlarni nazm (urjuza) va nasr shaklida bayon etib, tabobatning she’riy ifoda usulini keng ommalashtirgan hamda keyingi davr shoir-tabiblar ijodiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Abu Ali ibn Sino “Urjuza” nomli tibbiy she’riy asarida: “Tabib badanning shohi bo‘lganidek, shoir tilning amiridir”, – deb yozgan edi[18]. “Urjuza” muallifning o‘zi tomonidan yozilgan nasriy muqaddima va 1326 baytdan iborat asosiy qismdan tashkil topgan ixcham shakldagi tib kitobidir. “Urjuza” asarining nasriy muqaddimasida buyuk hakim Ibn Sino she’riy tibbiy asarlarning vujudga kelishi haqida shunday deydi: “Hakimlar va qadimgi vaqtda o‘tgan fozillarda podshohlar, amirlar, xalifa va vazirlar, qozikalon, faqihlarga nasr va nazmda turli fan hamda ilmlar bo‘yicha asar yozib taqdim etish yo‘li bilan xizmat ko‘rsatish odat bo‘lib kelgan. Xususan, tabib-shoirlar, ko‘pincha, rajaz bahrida nazmlar yozganlar va kunnoshalar (suryoniy tilidan kirgan bu so‘zning asl ma’nosi – “*ayrim qoidalar ajralib chiqadigan qonunlar to‘plami*” bo‘lib, bu yerda tibbiy to‘plam kitobini bildiradi) tuzganlar. Bundan ko‘zlangan maqsad rajazga kim mohir, kim ojiz ekanligini aniqlash bo‘lgan. Buning natijasida podshohlar tabobat qonunlari va hikmatning yo‘l-yo‘riqlari bilan tanishganlar”[19]. Bundan ayon bo‘ladiki, she’riy tibbiy asar yaratish an’ana tusiga kirgan va tibbiy she’r uchun aniq vazn belgilab qo‘yilgan. O‘rta asrning qomusiy allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniyning “Minerologiya” kitobida ham 84 ta, “Saydana” asarida esa 65 ta o‘simlik, ma’dan va hayvonotdan olinadigan dorilar haqidagi she’rlar keltirilgan.

Mumtoz tibbiy she’riyatda kasalliklarning klinik tavsifi, murakkab patologik jarayonlar hamda insoniy iztiroblar badiiy talqin qilinib, ma’naviy-axloqiy xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan. Zamonaviy tibbiy she’riyatda esa asosiy urg‘u sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, gigiyena qoidalari hamda sabzavot va mevalarning foydali xususiyatlarini sodda, obrazli va yosh avlodga tushunarli tarzda

[13] Spaniol S. Art and mental illness: where is the link? – USA: The Arts in Psychotherapy, 2001. – P. 221-231.
[14] Malchiodi C.A. What is art therapy? – London: National Institute of Mental Health, 2011. – P. 1-11.
[15] https://hekint.org/2017/04/28/poetry-in-medicine/
[16] Соломонова А.А. Медицинская тема в литературе конца XIX начала XXI вв // Лобачевского: Филология. Искусствознание Вестник, № 2, 2014. – С. 309-313.
[17] https://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskaya-tema-v-literature-kontsa-xix-nachala-xxi-vv
[18] Ҳасаний М. Ўтмишда табобат асарлари қайси усулда ёзилган? // Ҳуррият газетаси, 2009. – Б. 7.
[19] Абу Али ибн Сино. Уржуза ёки 1326 байт тиббий ўгит. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр, 1999. – Б. 12.

ifodalashga qaratilgan. Mazkur o‘zgarish tibbiy she’riyatning mazmun va vazifa jihatidan evolyutsiyasini ko‘rsatadi. Natijada bugungi tibbiy she’riyat estetik hodisa bo‘lish bilan birga, pedagogik va profilaktik ahamiyatga ega ma’rifiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Dori qovoq – oshqovoq

Mening ismim oshqovoq,
Qarindoshimdir qovoq.
Mendan manti qilsangiz,
Bo‘laman naq bir tovoq.

Bo‘lsangiz agar betob,
Asal qo‘shib yeng shu tob.
Ko‘p kasalga davoman,
Porlaysiz misli oftob[20].

Bobning uchinchi bo‘limi *“Badiiy matnda qo‘llangan tibbiy birliklar tavsifi”* deb nomlangan. Ushbu bo‘limda maxsus tibbiyot faniga oid badiiy asarlarda qo‘llangan tibbiy birliklar bilan bir qatorda to‘liq tibbiy yo‘nalishga mansub bo‘lmagan, biroq matn tarkibida tibbiy mazmun va ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan badiiy asarlarda uchraydigan tibbiy birliklar tahlil qilinadi. Mazkur birliklarning badiiy matn kontekstida shakllanishi, mazmuniy yuklamasi va estetik funksiyasi aniqlanib, ularning tibbiy terminologiya va badiiy nutq o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari yoritiladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Tibbiy she’riyat leksikasi**” deb nomlanadi. Bobning *“Tibbiy metaforalarning she’riyatda ifodalanishi”* deb nomlangan birinchi bo‘limida kognitiv tilshunoslikda metaforalar tadqiqi (N.Arutyunova[21], V.Teliya[22]), tibbiy metaforalarning she’riyatdagi ahamiyati xususida so‘z boradi. She’riyat – tajriba chegarasida o‘zgarib, yangi metaforik shakl olayotgan so‘zlar majmuasidir. She’riyatning mavzular olami bisyor, uning tarkibiga kirgan mavzulardan biri ibtidoiy davrlardan beri inson bilan hamqadam bo‘lgan tibbiyotdir.

Tuyoqo‘t o‘simligi

Uch daraja issiq, ikkinchi quruq,
Hidi mushkka yaqin, bundan shubha yo‘q,
Jigar tiqilmasi u bilan bitar,
Bu bobda dori yo‘q undan ham o‘tar.
Jigar qattiqlashsa, yo‘qotar uni,

Siydik haydashda ham tengsiz bil uni.
Eski og‘riq bo‘lsa, yo‘qolar sonda,
Tabib yarim misqol bergan zamonda.
Sovuq illatlardan og‘risa asab,
Tuyoqo‘tdan davo aylagin talab[23].

[20] http://gulxan.uz/sherlar/dori-qovoq-oshqovoq
[21] Арутюнова Н.Д. Языковая метафора (синт. и лексика). – Москва: Лингвистика и поэтика, 1979. – 170 с.
[22] Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и ее экспрессивно-оценочная функция. – Москва: Лингвистика, 1988. – 56 с.
[23] Давоий Х. Фавойиду-л инсон. – Тошкент: Мерос, 1991. – Б. 33.

Yuqoridagi tibbiy mazmundagi she’rda shoir she’rning jozibadorligini, esda qolarliligini ta’minlash, badiiyligini oshirish uchun tibbiy birliklarni metaforik shaklda qo‘llagan. Parchada keltirilgan *jigar tiqilmasi*, *jigar qattiqlashsa*, *siydik haydash, sovuq illatlar* kabi tibbiy metaforik birliklar matnning tavsifiy jihatdan yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlagan. *Jigar tiqilmasi*, *jigar qattiqlashsa* tibbiy metaforik birliklari jigar kasalliklari bilan bog‘liq tushunchalarni germenevtik jihatdan izohlab, matnning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Jigarda to‘plangan ortiqcha yog‘lar jigar sirrozidan yurakkacha bo‘lgan ko‘plab jiddiy kasalliklarga olib keladi. Shu aniqlikni berish uchun shoir qattiq jismlarga xos xususiyatni yumshoq bo‘lgan jigarga ko‘chirgan, bu orqali she’rda ifodalangan tasvirning aniqligini va she’riy parchaning ravon o‘qilishini ta’minlagan. Tibbiy she’riyatda uchraydigan metaforik birliklarning aksariyati kundalik diskurs va professional nutqning uyg‘unligida hosil bo‘lgan so‘z birikmasi shaklidagi tibbiy metaforik birliklardir.

Bobning *“Frazeologik birliklarning tibbiy she’riyatda qo‘llanishi”* deb nomlangan ikkinchi bo‘limida tilning frazeologik fondi, frazeologik birliklarning she’riyatdagi, xususan, tibbiy she’riyatdagi o‘rni xususida so‘z boradi. Tibbiy mazmundagi asarlarda qo‘llangan frazeologik birliklar tib ilmi, shifo xususiyatlari, kasallik va salomatlik kabi tushunchalarni o‘zida jamlaydi. Tarixan nasriy asarlardan oldinroq paydo bo‘lgan nazmiy asarlar tilida turli sema ifodalagan frazeologik, metaforik, perifrazik birliklar va takrorlanmas troplar mavjud. Xususan, nazmiy tibbiyotning badiiyatini oshiruvchi tibbiy frazeologik birliklar semantik tizma hosil qilishi mumkin (2.1-rasmga qarang):



“2.1-rasm“. Tibbiy she’riyatda qo‘llangan frazemalarning semantik tavsifi

a) Igna yutib, *g‘amga botganda* mutloq,
Tadbiri hikmatdan emasdir uzoq.
Magnetitdan tuyib bir diramini,
Uzum suvi ila ichgin o‘sha choq[24].

Ushbu parcha xalq tabobati, dardga shifo topish usullari bilan bog‘liq fikrlarni jamlagan bo‘lib, “igna yutish” tibbiy muammosining yechimini ochiqlagan. “Igna yutish” birikmasi ko‘p ma’noli birikma bo‘lib, ushbu parchada o‘z ma’nosida qo‘llangan, ko‘chma ma’noda “og‘ir dard” semasini tashiydi. “Igna yutish”ning xavfli tibbiy muammo ekanligi “*g‘amga botmoq*” tibbiy frazeologik birligi orqali yanada oydinlashgan. “*G‘amga botmoq*” frazeologik birikmasi tibbiy nazmiy parchada, ya’ni kontekstda tibbiy frazeologik birlik semasini tashigan, ya’ni kasallikka aloqador frazeologik birlik sifatida “dard, kasallik” semalarini ifodalagan,

[24] Хасаний М. Табобат хазинаси дурдоналаридан. – Тошкент: Медицина, 1987. – Б. 144.

“*igna yutish og‘ir darddir mutloq*” deyilganda nazmiy parchaning emotsional-ekspressivligi pasayar edi, aynan tibbiy frazema kasallik va uning xavflilik darajasini aniqroq ifodalashga xizmat qilgan. Parchaning keyingi misralarida bu dardning davosi xalqona tabobat va ilmiy qarashlar uyg‘unligida bayon etilgan. Ya’ni magnetit (magniy toshi) va uzum suvi davo sifatida ko‘rsatilgan. Sharq madaniyatida “igna” leksemasi “og‘riq, dard, bezovtalik” semalarini tashuvchi lingvomadaniy birlik sifatida ma’lum bo‘lib, xalqimiz dialektida “*Igna ustida o‘tirmoq”, “Yuragiga igna sanchmoq*” kabi frazeologik birliklar *ruhiy dard chekmoq, azob* semalarini ifodalaydi.

b) O‘lim kelsa, tabib ablah bo‘lajak,
Davoga ***yo‘l topmay*** gumrah bo‘lajak.
Sikanjubin shunda safro tug‘dirar,
Bodom yog‘i quruq mijoz yog‘dirar.
Halila yumshatmay qotirar ichni,
Yoqqa suv go‘yoki bergandek kuchni.
Yuraklar sust bo‘lar, uyqu esa kam,
Achishar ko‘zlar-u yurak to‘la g‘am[25]. (Jaloliddin Rumiy)

Sharqona tabobat an’analari namoyon bo‘lgan ushbu nazmiy parchada o‘lim kelganda mohir tabib ham ojizligi, har qanday davo vositasi ham kuchsiz ekanligi “yo‘l topmay” frazeologik birligi orqali ifodalanib, hayotiy dalillar orqali she’riy shaklda bayon etilgan. Yurak sust bo‘lishi, uyqusizlik, ko‘zlar yoshlanishi, yurak g‘amga to‘lishi – bularning barchasi “kasallik” semasi bilan birga “kuchsizlik, dard, g‘am” semalarini ham ifodalagan. Sharq tabobatida muhim ahamiyat kasb etgan *sikanjubin, bodom yog‘i, halila* ham davo sifatida emas, dardni kuchaytiruvchi vosita sifatida keltirilganligi “Yoqqa suv go‘yoki bergandek kuch” o‘xshatishi orqali izohlangan.

c) Siqilib, ranglaring bo‘lsa za’faron,
Yurakni yozmoqqa qidir za’faron.
Agar me’yorida ichsa har kishi,
Za’farondan qochar rangi safaron[26].

Tibbiy bilim, xalqona tajriba, madaniy ramz, emotsional ma’nolarni o‘zida jamlagan ushbu nazmiy parchada hamma kasalliklarning asosi – siqilish, uning davosi esa “za’faron” ekanligi bayon etilgan. Za’faron o‘simligi fitoterapiyada muhim ahamiyat kasb etib, qator kasalliklarning shifosi sifatida e’tirof etiladi. Parchada za’faron bu xalq tabobatida bemorlik semasini tashuvchi birlik sifatida, ya’ni yuzlarning nursiz, rangsiz, oqarib ketishi orqali insonning bemorlik holatini tasvirlovchi birlik sifatida qo‘llaniladi. Parchada za’faronning shifo semasi esa “*yurakni yozmoq”* tibbiy frazeologik birligi orqali ochiqlanib, siqilishni tarqatuvchi tibbiy-dorivor o‘simlik sifatida ta’riflangan. Parchada za’faron fitonimi *rang~kayfiyat~sog‘liq* kabi ma’noviy zanjirda birikib, konseptual maydon hosil qilgan.

Bobning uchinchi bo‘limi *“Tibbiy she’riyatda qo‘llangan paremalarda leksik birliklar tavsifi”* deb nomlangan. Ushbu faslda tibbiy she’riyatda davo, shifo,

[25] Хасаний М. Табобат хазинаси дурдоналаридан. – Тошкент: Медицина, 1987. – Б. 144.
[26] Махдум М. 1001 тиббий ҳикмат. – Тошкент: Фан ва технология, 2011. – Б. 252.

kasalliklar ta’rifi, belgilarini ifodalashda paremalardan foydalanish parchaning qiymatini oshiribgina qolmay, xalq qadriyatlari, tarixiy an’analari, milliy o‘zlik kabi qator lingvomadaniy xususiyatlarni namoyon etishi bayon etilgan. Tib ilmi bayoni keltirilgan paremalarning aksariyati Ibn Sino tibbiy ilmlari bilan qorishib, sharqona davo usullarini namoyon etgan. Tibbiy paremalar mazmuni ochib berilgan mumtoz she’riy asarlarda sharqona tabobat ilmi aks etadi va bu bir necha kichkina mavzuviy guruhlar ichida tahlil qilingan:

I. Salomatlik bilan bog‘liq xalq paremalarining she’riyatda ifodalanishi:

“Davlat asosi – sihat matosi” tibbiy paremada salomatlikning butun davlat uchun eng muhim ne’mat ekanligi o‘xshashlikka asoslangan ramziy ma’noviy birliklar vositasida izohlangan. Mazkur parema orqali insonning salomatligi undagi davlat(boylik)ning asosi eknaligini, sog‘liqsiz hech qanday boylig-u shodlik tatimasligi g‘oyasi ilgari surilayotganligini sezish qiyin emas. Ushbu o‘rinda xalq tilidagi shu mazmun-g‘oya aks etgan boshqa bir maqol bilan qiyoslash orqali fikrimizni yanada mustahkamlashga harakat qilamiz. Jumladan, *“Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi*”, ushbu maqol asosida ham yuqorida aytib o‘tganimizdek, inson uchun eng muhimi salomatlik ekanligi, qachonki insonning tan-u joni sog‘ bo‘lsa, u hamma narsaga erishishga qodir bo‘lishi mazmuni yotadi:

Xalq ichida mo‘tabar hech narsa yo‘q davlat kabi,
Bo‘lmag‘ay davlat jahonda bir nafas sihhat kabi.
Sog‘liq kabi aslo hech davlat bo‘lmas,
Zaiflik, sustlikdek zo‘r mehnat bo‘lmas[27].

II. Davolanish bilan bog‘liq paremalarning she’riyatda bayoni:

“Davolanishdan qochish – o‘limga yo‘l ochish”;
Tandurust bo‘lay desang, hikmat uyiga bo‘l ravon,
Har xil illatdan qorong‘u bo‘lmag‘ay senga jahon (Yusufiy).

Xalq paremalarining hammasi ham ommalashib ketmaydi. Faqatgina jamiyatdagi insonlarning real hayoti bilan bog‘liq, dolzarb mavzudagi hikmatlar ommalashib, sayqallanib boradi, avloddan avlodga o‘tib, paremaga aylanadi. Yuqoridagi davolanish bilan bog‘liq parema ham inson hayoti uchun eng muhim salomatlik tadbiri haqida bo‘lib, mumtoz g‘azallarda ham mazmunan aks etgan. O‘zbek tilining naqadar jilokor ekanligini birgina “sog‘lom” leksemasining turli lug‘aviy birliklar orqali ifodalanishini yuqoridagi badiiy adabiyot durdonalarida keltirilgan *sog‘lom, tanisog‘, sog‘, bardam, tandurust, durust, tansihat, sihatli* kabilar misolida ko‘rish mumkin. Bu leksemaga qarama-qarshi semada qo‘llanuvchi “kasal” leksemasi ham o‘zbek tili leksik qatlamida *kasal, betob, darmonsiz, bemor, shikasta, nodurust, nosog‘, dardmand, xasta* kabilar bilan sinonimik qator hosil qiladi.

III. Bemorlik va dardni ifodalovchi paremalarning she’riyatda ifodalanishi:

Odam bilar sihat matosi qadrin,
Boshidan o‘tkazsa, isitma dardin.
Sen uchun tun qancha ko‘rinsa uzoq,
Bemalol ag‘anab, yayrab yotgan choq.

[27] Хасаний М. Табобат хазинаси дурдоналаридан. – Тошкент: Медицина, 1987. – Б. 144.

O‘ylagin bemorning uyg‘oqligini,
Bemor bilan tunning uzoqligini.
Nog‘ora bongidan uyg‘onsa kishi,
Ma’lummas tundagi posbon tashvishi (Sa’diy Sheroziy).

Sa’diy Sheroziy qalamiga mansub ushbu parcha *“Tunning uzunligi dardi borlarga ayon”* paremasiga hamohang oddiygina tunning tasviri bemorlik holati, sharqona shukronalik hissi, posbonning mashaqqati bilan uyg‘unlikda takrorlanmas badiiylik kasb etgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Tibbiy she’riyatning lug‘aviy-grammatik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Ushbu bobning *“She’riyatdagi tibbiy birliklarning leksik-semantik tahlili”* deb nomlangan birinchi bo‘limida poetik tibbiyotdagi til birliklarining leksik-semantik tavsifi bayon etilib, poetik (nazmiy) tibbiyotda qo‘llanilgan tibbiy birliklar kichik semantik guruhlarga ajratilgan (3.1-rasmga qarang).

“3.1-rasm”. Poetik tibbiyotda qo‘llanilgan tibbiy birliklarning semantik guruhlari tasnifi

1. Salomatlik bilan bog‘liq tibbiy birliklar.

Tibbiy she’riyatda “salomatlik” semasi bilan bog‘liq semantik birliklarning mazmuniy, emotsional va ramziy jihatlari bisyor.

Sog‘man hamon deya chirana berma,
Menman omon deya chirana berma.
Taqdir o‘yinlari bordir oldinda,
Qadding bo‘lur kamon chirana berma[28].

2. Kasallik bilan bog‘liq tibbiy birliklar.

Boshog‘riq tavsifi

Ey, bosh og‘rig‘idan chekuvchi alam,
Harakat qilmagin dam olgin har dam.
Gulxayri, binafsha, bug‘doy kepagin,
Qaynatib suviga oyoq sol bir dam.

Yuqoridagi “boshog‘riq” bayoni berilgan she’rda “boshog‘riq” leksemasi insonning jismoniy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi, harakatini sustlashtiruvchi, shu bilan birga, “shifo” semasida dam olish kerakligini bildiruvchi, gulxayri, binafsha, bug‘doy kepagining davolovchi xususiyatga egaligi kabi turli ma’nolarni o‘z atrofida birlashtirib, bir yadroviy semantik maydon hosil qilgan. Mazkur leksema ifodalagan ma’no tibbiy termin sifatida *cefalgia* (yun. *kephalē* – bosh, *algos* – og‘riq) leksemasi orqali ifodalanib, u professional tibbiy diskursda qo‘llaniladi.

[28] Махдум М. 1001 тиббий ҳикмат. – Тошкент: Фан ва технология, 2011. – Б. 252.

3. O‘lim bilan bog‘liq tibbiy birliklar.

Kasallik o‘limning elchisi erur,
Elchidan bexabar bo‘lma, ey mag‘rur.
Maishat qiluvchi qiynalib o‘lar,
Tanparvar vujudi azobga to‘lar (Jaloliddin Rumiy).
Mardlar tishlar o‘lim barmog‘in bari,
Tibda bunga qarshi bo‘lmagay dori (Sa’diy Sheroziy).

Tibbiyot maxsus leksik tizimga ega. Tibbiy leksika professional terminlar bilan birga umumiy tushunchalar ifodalovchi leksikani ham o‘z ichiga oladi. Badiiy adabiyotda umumiy tushuncha ifodalovchi tibbiy birliklardan foydalaniladi. “Sog‘liq” leksemasiga umumiy ma’noda qarama-qarshi sema ifodalovchi “o‘lim” leksemasi o‘zbek tilining chuqur ma’noli, ko‘p funksiyali va lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan asosiy leksik birliklaridan biridir. Tibbiy lingvistikada bu leksema biologik, klinik, psixologik va ijtimoiy kontekstlarda turli semantik darajalarni ifodalaydi. “O‘lim” leksemasi bilan bog‘liq semalar: *Denotativ ma’no*: biologik jihatdan hayotning yakunlanishi, professional termin sifatida “klinik o‘lim”, “biologik o‘lim”, “miya to‘xtashi” kabi shakllarda ifodalanadi. *Konnotativ ma’no*: “o‘lim” leksemasi semantik metafora va psixolingvistik jihatdan emotsionallikni ifodalab, xalq folklorida, badiiy matnlarda “Allohning irodasi”, “omonatini topshirmoq”, “bandalikni bajo keltirmoq”, “ruhi taskin topmoq”, “boqiy hayotga yo‘l olmoq” kabi birliklar holida qo‘llaniladi; *Evfemik birlik*: *joni uzilmoq, so‘nggi manzilga ketmoq, omonatini topshirmoq, hayotdan ko‘z yummoq* kabilar.

4. Tana a’zolari bilan bog‘liq tibbiy birliklar.

Shabko‘rlik belgisini qilayin bayon,
Ko‘z ko‘rmas kechasi bo‘lgani hamon.
Ertalab chiqqanda mashriqda chirog‘,
Ko‘zi yaxshi ko‘radi misoli kalog‘.

Sinalgan bir dori aytayin senga,
So‘zlarim yod olgin, quloq sol menga.
Echki jigarin top, uni suvin ol,
Yaxshi suyultirib, yana murchdan sol.

Undan ko‘zga qilsang, bir necha bor mil,
Shabko‘rlik tuzalar bekolu bekil[29].

Poetik tibbiyot semantik maydonida tana a’zolari muhim o‘rin egallaydi. Negaki, *kasallik, shifo, dard* – bularning barchasi inson tana a’zolarida kechadi. Inson tana a’zolari anatomiya**,** fiziologiya va tibbiyot fanlarining markaziy tushunchalari bo‘lishi bilan birga, bevosita tilshunoslikda ham boy semantik va madaniy-ma’naviy yuklamaga ega leksik birliklardir. Inson tana a’zolari xalq tafakkurida konseptual birliklar (masalan, *yurak* – sevgi, jasorat; *quloq* – sezgirlik, sotqinlik; *til* – dono so‘z, g‘iybat; *qo‘l* – birdamlik; *bosh* – aql, rahbarlik) tarzida

[29]Махдум М. 1001 тиббий ҳикмат. – Тошкент: Фан ва технология, 2011. – Б. 252.

shakllangan. Bu konseptlar xalq og‘zaki ijodida, maqollarda, she’riyatda, diniy va falsafiy matnlarda qo‘llanilib, milliy-madaniy o‘ziga xoslikni namoyon etadi.

Inson tana a’zolari tibbiyotda professional terminologik qatlamga kiradi. Masalan, *yurak – cor; o‘pka – pulmo; jigar – hepar* kabi ilmiy atamalar tibbiyotga yunon va lotin tilidan kirgan bo‘lib, leksikografiya va terminologik tizimning o‘rganilish obyekti sanaladi.

5. *Dorivor giyohlar bilan bog‘liq tibbiy birliklar***:**

Shivit

Quruq-issiq bo‘lar shivit mijozi,
Tiqilma ochadi, bu bobda sozi.
Sovuqdan nogahon og‘risa qorin,
Shivit bo‘lsin doim uning hamrozi.

Go‘shtni pishirmoqchi bo‘lsang qozonda,
Shivitdan ichiga solsang shu onda.
Yetilib, tez pishar, hazm qilishga,
Me’dang bo‘lar seni yaxshi imkonda[30].

Tibbiy lingvistikada dorivor giyohlar nomlari ikki xil asosda shakllanadi:

1. Ilmiy terminologik usul orqali, ya’ni lotincha giyoh nomi terminologik sath birligi sifatida: *Mentha piperita* – yalpiz.

